

**PEDAGOGIK JARAYONDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI HAL ETISHDA
O‘QITUVCHINING KASBIY MAHORATI VA PEDAGOGIK TEXNIKASINING
USTUVORLIGI**

Panjiyeva Ruxshona Oybek qizi

*Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika fakulteti “Pedagogika”
ta’lim yo’nalishi 3- bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Shonazarov Jamol Umirzoqovich

*Xalqaro innovatsion universiteti “Psixologiya va jismoniy madaniyat”
kafedrasi mudiri, dotsent*

(+99893 9340179)

Email: jshonazarov1331@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada pedagog shaxsi, pedagogik jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, muammoli vaziyatlar va uni hal etishda o‘qituvchining kasbiy mahorati masalalari bayon etilgan.*

Shuningdek, ta’lim samaradorligiga erishishda o‘qituvchining pedagogik texnika va muloqot madaniyati uyg‘unligi, pedagogik mahoratga erishish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagog shaxsi, pedagogik jarayon, pedagogik faoliyat, innovatsion faoliyat, muammoli vaziyat, pedagogik mahorat, pedagogik texnika, nutq madaniyati, mimika, pantomimika, pedagogik odob, pedagogik ta’sir.*

Аннотация: *В статье описывается личность педагога, взаимоотношения учителя и ученика в педагогическом процессе, проблемные ситуации и профессиональные умения педагога в их решении.*

Также для достижения образовательной эффективности сочетаются педагогические приемы учителя и культура общения, упоминаются пути достижения педагогического мастерства.

Ключевые слова: *педагогическая личность, педагогический процесс, педагогическая деятельность, инновационная деятельность, проблемная ситуация, педагогические навыки, педагогические методы, культура речи, мимикрия, пантомима, педагогический этикет, педагогическое влияние.*

Ma’lumki, o‘qituvchilik kasbi jamiyat uchun, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhim vazifani bajargan, chunki pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida jamiyat rivojini ta’minlovchi kuch hisoblanadi. Har bir pedagog o‘z kasbiy bilim ko‘nikma va

malakalari ustida tinmay g‘amxo‘rlik qilishlari bilan o‘zlari dars beradigan fanlarning mahoratli egasi bo‘lishlari, o‘zlarining shaxsiy, insoniy, ma‘naviy axloqiy fazilatlari bilan jamoatchilik, xalq orasida mustahkam obro‘ga ega bo‘lishiga harakat qilishlari lozim, deb biladi. Zero, pedagogning ijtimoiy – madaniy mavqei, obro‘si, uning pedagogik faoliyati mahsuldorligiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat mafkurasi bilan bog‘liq holda yoshlarning ijtimoiy ongining o‘shishi ustida g‘amxo‘rlik qiladi, ularni haqiqiy insonparvar, demokrat, milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarini himoya qilishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi “ Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” Qonuni mazmunidan kelib chiqib, bugungi kunda pedagogik faoliyat jarayoni keng qamrovli xususiyatlarga ega ekanligi e‘tirof etiladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda o‘qituvchi mahoratida pedagogik texnikaning roli beqiyosdir. Chunki u o‘qituvchiga o‘z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyg‘ularini (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o‘quv faoliyatida, o‘qishdan tashqari ishlar jarayonida qo‘llash yo‘llarini tushuntirishda dasturamal bo‘lib xizmat ko‘rsatadi. Shuningdek, ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi konflikt holatlarda pedagogik texnika, o‘qituvchining muloqot madaniyati ikki munosabatlar tizimida o‘zaro murosa va o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatish, tashkil qilish va boshqarishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi.

Pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik texnikasi hal qiluvchi (ustuvor) rol o‘ynaydi. Bu o‘qituvchidan faqat bilimdonlikni emas, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlik, ijodkorlik va vaziyatni boshqara olish qobiliyatini talab etadi [1]. Pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida hal qiladi. Bu faoliyat o‘qituvchining individual uslubini belgilab beradi. O‘qituvchida o‘z-o‘zini boshqarish, qat‘iylik, jur‘atlilik, jasurlik, atrofda insonlarga hurmat va e‘tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o‘z imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baholashda haqqoniylik, kuchli iroda, o‘z kuch-quvvatini maqsadli yo‘naltira olish, faoliyat va belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘lida imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to‘g‘ri boshqarib borish, aqliy faollik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch hamda ijtimoiy olam bilan o‘z imkoniyatlarini qiyoslay olish

sifatlariga ega bo‘lsagina yuksak kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan [1].

Pedagogik tajribalar va pedagogik tafakkur shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnikani to‘liq egallash, uning malakalarini o‘zida shakllantirish ta’lim – tarbiya samaradorligini oshirishga, o‘quvchilar tarbiyalanganligini yuksaltirishga va shu asosda pedagogik mahorat pillapoyalari sari ko‘tarilishga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining pedagogik faoliyat madaniyati tizimida pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik muloqot madaniyatining yuqoriligi pedagogik jarayonni samarali boshqarishga asos bo‘ladi.

Yaxlit pedagogik jarayoni boshqarishda o‘qituvchining pedagogik texnika malakalari tarkibidagi asosiy jihati (qurol) sifatida nutqi va uning ta’sirchanligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, o‘qituvchi faoliyatida nutq ta’limiy – tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. O‘quvchilar o‘qituvchi nutqi orqali bilim, fikr, ishonchga ega bo‘ladilar. Muayyan his-tuyg‘ularni tushunib, o‘z faoliyatlarini shu nutqda bayon ettirganlari asosida tashkil etadilar. So‘z bilan og‘zaki ta’sir o‘tkazish o‘qituvchining madaniy saviyasida va o‘quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi [2]. O‘qituvchilarning o‘quvchilarga o‘quv materiallarini tushuntirishi, ular bilan suhbatlar olib borishiga qarab quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatish mumkin:

Tajribaning ko‘rsatishicha o‘quv materiallarini idrok qilishda o‘qituvchining nutqi asosiy rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘qituvchining fikrlarini, nutqi ni nihoyatda kuzatuvchanlik bilan kuzatadilar. Mabodo, o‘qituvchi so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz etsa, o‘quvchilar uning ustidan kulib, masxara qilib yuradilar. Ammo, past ohangda gapiradigan o‘qituvchining darsi esa, o‘quvchilar uchun hamma vaqt zerikarli bo‘ladi. Nihoyatda baland gapirish, chinqiroq tovushda so‘zlash o‘quvchilarni charchatadi va bezdiradi. O‘quvchilarning bunday o‘qituvchi ta’limidan ko‘ngillari soviydi. Shuning uchun o‘qituvchi sof o‘zbek adabiy tilida gapirishi, o‘z nutqini chiroyli va tushunarli, ta’sirchan qilib bayon qilishi, fikr va his-tuyg‘ularini so‘zida aniq ifodalash malakalariga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z nutqlari ustida tinmay ishlashlari, so‘zlarining chiroyli, ma’noli, ta’sirchan bo‘lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi, tembri, harakatchanligi, diksiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

O‘qituvchining nutqi muayyan mazmunga ega bo‘lganligi sababli bolalarning his - tuyg‘ularni uyg‘otibgina qolmay, balki uni to‘g‘ri ifodalash, so‘zlarni aniq, burro talaffuz qilishi bilan ham ta’sirchan bo‘ladi. Ayrim o‘qituvchilarda esa nutq ancha ohista, ta’sirsiz, kam ifodali, qat’iy izchillikka rioya qilinmagan holda, dalilsiz va mantiqsiz bo‘ladi. Bunday nutqda bayon qilingan o‘quv ma’lumoti o‘quvchilar tomonidan past va bo‘sh o‘zlashtiriladi, uning tarbiyaviy ta’siri ham sust bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, o‘qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim omil sifatida o‘qituvchi nutqining ta’sirchanligin oshiradi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o‘qituvchining imo-ishorasida, ma’noli qarashlarida, rag‘batlantiruvchi yoki kinoyali tabassumida namoyon bo‘ladi va ular o‘qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta’sir ko‘rsatishida, o‘quvchi-talabalarga mashg‘ulotlarni ta’sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o‘tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi. Mimik harakatlar, ifodalar ma’lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o‘zlashtirish uchun imkon yaratadi. O‘quvchi - talabalar o‘qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «o‘qib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba’zi noxushliklar o‘quv mashg‘ulotlariga ta’sir ko‘rsatadi [3].

Mimik ifodalar o‘quvchi – talabalarining o‘quv kayfiyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg‘ulotlariga xos ta’sirini ko‘rsata bilishi talab etiladi. Bu o‘quv - tarbiya topshiriqlarini yechish o‘quvchi-talabalar ta’limi va tarbiyasiga ijobiy yo‘nalish bera oladigan ko‘rinishlarni ifodalashi lozim.

Pantomimika - bu gavda, qo‘l, oyoq harakatidir. O‘qituvchi darsda o‘quv ma’lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma’lumotlarning obrazini chizadi, o‘quvchi-talabalar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg‘ulari, ularning tashqi hissiyotlari bilan qo‘shilib butun borliq ma’lumotlar mazmunini o‘zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to‘liq bayon qila turib qo‘l, boshni turli harakatlarga keltirish o‘qituvchining o‘z bilimiga, kuchiga ishonchini anglatadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, o‘qituvchi talabalar oldida o‘zini tuta bilsa, harakatlarini tartibga keltira olsa, o‘quv-tarbiya jarayoni samarali bo‘ladi.

Shunday qilib, har bir o‘qituvchi yuqorida qayd etib o‘tilgan pedagogik ta’sir munosabatlari, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari mujassamlashgan holda dars olib borar ekan, u yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, va ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o‘qituvchi o‘z fanini, o‘qitadigan sohasini, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, muntazam ravishda ilg‘or tajribalarni o‘rganib borishi, kasbiy - pedagogik jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalashi zarur bo‘ladi. Demak, o‘qituvchi-tarbiyachi o‘zida shaxsiy-kasbiy malakalarni pedagogik amaliyotdagi ilg‘or tajribalar asosida tarbiyalashi, o‘zlashtirib borishi bugungi davr talabi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi, bu esa o‘qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Список литературы

1. N.A.Muslimov. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 35 bet
2. Xolnqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: «IQTISODMOLIYA» nashriyoti, 2010,-58 bet
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. o‘quv qo‘llanma – Toshkent «Turon-Iqbol» 2006. – 17 b.